

IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAROITLARI

Xamrayev Nodirbek

v/b.dotsent, i.f.f.d.

Qarshi davlat texnika universiteti

e-mail: nodir1984@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, modernizatsiyalash, takomillashtirish va uning atrofida rivojlangan bozor infratuzilmasini yaratish. Aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida oziq-ovqat sanoati korxonalariga barqaror xom ashyo yetkazib berish sohasida tijorat vositachilikni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirish.

Kalit so'zlar: mahsulot, texnik, bozor, sanoat, xom-ashyo, marketing.

ANNOTATION: This article discusses the strengthening, modernization, improvement of the material and technical supply of food industry enterprises and the creation of a developed market infrastructure around it. To encourage the diversification of commercial intermediation in the field of sustainable supply of raw materials to food industry enterprises in order to continuously provide the population with high-quality food products.

Keywords: product, technical, market, industry, raw materials, marketing.

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются вопросы укрепления, модернизации и совершенствования материально-технического обеспечения предприятий пищевой промышленности, а также формирования развитой рыночной инфраструктуры в этой сфере. Особое внимание уделяется стимулированию диверсификации коммерческого посредничества в области устойчивого снабжения предприятий пищевой промышленности сырьем для обеспечения бесперебойного снабжения населения качественными продуктами питания.

Ключевые слова: продукция, технический, рынок, промышленность, сырье, маркетинг.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, «mahsulotlar sifati va xavfsizligini tartibga solishda oziq-ovqat xom ashyosi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish tizimining samarali ishlashini ta'minlash maqsadida davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlik va muvofiklashtirishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi».

Shuni ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarni xom ashyo yetkazib beruvchilar va maxsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlari mos keladigan tadbirkorlik usullarida berilgan iqtisodiy sharoit uchun eng oqilona mulkchilik shakllarini tanlashni takozo etadi. Masalan, erkin foydalanish huquqiga ega ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish mumkin. Shuningdek, «xom ashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash korxonalar va tayyor oziq-ovqat maxsulotlarni ishlab chiqaruvchilar tuzilmalarining joylashishi ham muhim sanaladi».

Iqtisodchi M.Rudnevning ta'kidlashicha, «qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida ishlab chiqarishini samarali tashkil etish yer, texnik va boshqa takror ishlab chiqarish vositalari, mexnat va moliyaviy resurslarning oqilona muvozanatini, ishlab chiqarish tarmoqlari va yordamchi sohalarning makbul ravishda integratsiyalashuviga bog'liq bo'lib, bu oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishi rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartdir». Shuningdek, rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilgan ishlab chiqarish faoliyat strategiyasi va boshqaruv strategiyasini tanlash ayrim tarkibiy qismlarni boshqalari bilan almashtirish yoki yangi elementlarni kiritish orqali tashkiliy mexanizmni o'zgartirishni taqozo etadi. Masaman, «oziq-ovqat sanoatining yirik korxonalari uchun maqbul bo'lgan, bozor iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlariga moslashtirilgan tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish - korxona faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlashga imkon beradi».

Iqtisodchi M.Axmatilov o'z tadqiqotida «oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlanish dasturlarining strategik maqsadi ichki resurslarni safarbar qilish va ulardan foydalanish

hamda tashqi investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lishi lozimligiga e'tibor karatgan».

Albatta, agar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning samarali strategiyasi amalga oshirish orqali mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash, qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish xajmini oshirish, import kilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga qaramlikni bartaraf etish, oziq-ovqat tarkibini optimallashtirish, xom ashyo va tayyor mahsulotlar sifatini oshirish kabi muammolarni hal qilish imkoniyatlari yaratiladi. D.Gorodilin tadqiqotida rivojlanayotgan bozorda «oziq-ovqat sanoati iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari sifatida tashkiliy boshqaruv konsepsiyasi va iqtisodiy institusional modellar ilgari suriladi. Bunda iqtisodiy rivojlanish hususiyatlari, iqtisodiy rivojlanish omillari va iqtisodiy hatti-harakatlarning o'ziga xos hususiyatlarini optimal tarzda hisobga olish maqsadga muvofikligi ta'kidlanadi».

Darhaqiqat, «oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoatining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash nafakat korxonalarning barcha ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni, balki, ularning o'zaro bog'liqligi ya'ni, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va mehnat samaradorligiga erishishni talab etadi». Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish rejalashtirish, moliya-kredit mexanizmi, sugurta tizimi, iqtisodiy munosabatlar mexanizmlari, moddiy ragbatlantirish va boshqa omillar asosida erishiladi.

Shundan kelib chikib, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini taklif qilish maqsadga muvofiq:

- oziq-ovqat sanoati korxonalarining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, modernizatsiyalash, takomillashtirish va uning atrofida rivojlangan bozor infratuzilmasini yaratish;
- aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida oziq-ovqat sanoati korxonalariga barqaror xom ashyo yetkazib berish sohasida tijorat vositachilikni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirish;
- qishloq xo'jaligi va oziq-ovqatni qayta ishlash korxonalari negizida oziq-ovqat

klasterlarini tashkil etish orqali oziq-ovqat sanoatini intinsiv rivojlanishiga erishish;

- oziq-ovqat sanoati korxonalarini bozor infratuzilmasiga integratsiyalash, ichki va tashqi aloqalar tizimidan samarali foydalanish;

- logistika infratuzilmasini yanada yaxshilash, yoqilg'i-moylash vositalarining narxini maqbullashtirish, marketing va onlayn tijorat faoliyati sohada keng joriy etish orqali jahon bozoriga chiqish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tolipova B.F. Oziq-ovqat sanoatining investisiyaviy samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va avtomatlashtirish istiqbollari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" 156 ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil. 207-b.

2. Mamatkulov M.Sh. Organizational and economic foundations of food industry Enterprises // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12, r.923

3. A.V. Panova, International Research Journal, 7 (97) (2020)

4. Belyaev N., Donskova L. Food Sector New Technologies and Innovations: Priorities for Vector Development / SHS Web of Conferences 93, 04017 (2021), r.5

5. Rastorguev P.V. Osobennosti formirovaniya sistem kontrolya kachestva i bezopasnosti produkcii APK v otdelnix stranax. Ekonomicheskie voprosi razvitiya selskogo xozyaystva Belarusi. 2013. 1(41):159-170.

6. Zavyalova L.I., Prudnikov K.O. Organizatsionnaya struktura upravleniya predpriyatiyami pishевой promishlennosti // EKONOMIKA i UPRAVLENIE. № 4, 2006g., s.12

7. Ryabova N.V., Saidov Z.A. Sistema upravleniya biznes-prosessami v krupnix kompaniyax pishевой promishlennosti // Rossiyskoe predprinimatelstvo. – 2008. – Tom 9. – № 9. – S. 90-95.